



## IQTISODIY - MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INNOVATSION MENEJMENT MODELLARI

**Maqsudov Bunyod Abdusamatovich**  
TMI Bank ishi kafedrasi katta o'qituvchisi  
Telefon raqam: +998903499888  
Email: [maqsudov\\_bunyodjon@tfi.uz](mailto:maqsudov_bunyodjon@tfi.uz)

**Akramova Aziza Abduvohidovna**  
TMI, Iqtisodiyot fakulteti talabasi  
Telefon raqam: +998902380157  
Email: [azizaakromova453@gmail.com](mailto:azizaakromova453@gmail.com)  
ORCID:0009-0006-9345-5507

### INNOVATIVE MANAGEMENT MODELS IN ENSURING ECONOMIC-FINANCIAL STABILITY

**Maqsudov Bunyod Abdusamatovich**  
Tashkent Financial Institute  
Senior teacher of the "Banking" department  
contact number: +99890 3499888  
Email: [maqsudov\\_bunyodjon@tfi.uz](mailto:maqsudov_bunyodjon@tfi.uz)

**Akramova Aziza Abduvohidovna**  
Tashkent Financial Institute  
Student of the Faculty of Economics  
contact number: +998902380157  
Email: [azizaakromova453@gmail.com](mailto:azizaakromova453@gmail.com)  
ORCID:0009-0006-9345-5507

### JEL Classification: O3, O32

**Annotatsiya:** Maqolada menejment tushunchasi, uning nazariy elementlari, innovatsion menejmentning Yapon va Amerika tajribalari, boshqaruv tizimining boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlari haqida hamda iqtisodiy - moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi ahamiyati haqida yoritilgan.

Menejment tizimining shakllanishi, faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun ko'rsatib o'tilgan asosiy tamoyillardan tashqari yana qo'shimcha tamoyillarga rioya qilish zarur, ular boshqaruv tizimining barcha tizimchalari uchun umumiy hisoblanadi:

➤ boshqaruvni amalga oshirishda ixtisoslashish va universallashishni muvofiq biriktirish (boshqaruv ishlarini bajarishda

ixtisoslashish va universallashish o'rta sidagi muvofiq nisbat ta'minlashi kerak);

➤ tashqi muhitga nisbatan barqarorlik (tashkilot makro- yoki mikromuhitining ayrim elementlari o'zgarishida boshqaruv tizimi faoliyat yuritishni davom ettirishi va qo'yilgan maqsadlarni bajarishi kerak);

➤ boshqaruvning tejamkorligi (boshqaruvni amalgalashishda oshirish va maqsadlarga erishish uchun usul va vositalarni tanlashda mehnat, moddiy vaqt, moliyaviy hamda boshqa xarajatlarni chegaralash zarur);

➤ boshqaruv samaradorligi;

➤ boshqaruv insonparvarligi;

➤ ta'sir ko'rsatish usullari va vositalarning boshqaruv obyektiga xos bo'lgan qonuniyatlarga mosligi

(boshqaruvda boshqaruv obyektining holati va rivojlanish qonunlarini hisobga olish zarur);

➤ vakolatlarning qo'yilgan vazifalarga mosligi (rahbariyat boshqaruv idoralari va xodimlariga o'zlarining oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun zarur bolgan vakolatlarni berishi kerak);

➤ istisno qilish (faqt standartlar va qoidalardan kattaroq chetga chiqishlarda nazorat tizimi ishga tushishi kerak);

➤ boshqaruvda markazlashtirish va markazlashtirmaslikni biriktirish (boshqaruvning har bir aniq tizimida tegishli vazifalarni bajarishni markazlashtirish (markazlashtirmaslik)ning muvofiq darjasini bo'lishi kerak. F.Modilyani va M.Miller amal qilinishi natijasida bozor samarali bo'lishi mumkin bo'lgan quyidagi shartlarni belgilaydi:

1. transaksion xarajatlarning yo'qligi;
2. axborotdan bozor ishtirokchilarining barchasi foydalanish imkoniyatiga egaligi;
3. sarmoyadorlar xatti-harakatlarining oqilonaligi.

**Abstract:** The article covers the concept of management, its theoretical elements, the Japanese and American experiences of innovative management, the management and manageable systems of the management system and its importance in ensuring economic - financial stability.

In addition to the basic principles outlined for the formation, operation and development of the Management system, it is necessary to adhere to additional principles, which are common to all systems of the management system:

- in the implementation of management, the corresponding ratio between specialization and the corresponding coupling of universalization (specialization and universalization in the performance of management work) should be ensured;
- stability to the external

environment (in the change of certain elements of the macro - or microenvironment of the organization, the management system must continue to operate and fulfill the goals set);

— management savings

(it is necessary to limit labor, material time, financial and other costs when choosing methods and tools to carry out Management and achieve goals);

— management efficiency;

— management humanism;

— compliance of methods and means of influence with the laws inherent in the object of control (in management it is necessary to take into account the state of the object of control and the laws of development);

— powers imposed task

force (management must give management offices and employees the powers necessary to carry out the tasks set before them);

— exception (only at deviations

larger than standards and regulations, the control system should start);

— in management the

combination of centralization and decentralization (in each specific system of management, there must be a corresponding level of centralization (decentralization) of the performance of the corresponding tasks;

F.Modillia and M.Miller defines the following conditions under which the market can be effective as a result of being followed:

- 1) lack of transactional costs;
- 2) the fact that all market participants have access to information;
- 3) rationality of investor behavior;

**Kalit so'zlar:** Moliyaviy aktivlar, investitsion strategiyalar, boshqaruv nazariyasi, texnik-tehnologik ba'za, tijoratni boshqarish, ilmiy yondashuvlar, tovar rentabelligi, innovatsion menejment, savdo menejmenti, boshqaruv tizimi

**Keywords:** Financial assets, investment strategies, management theory, technical-technological base, commercial management, scientific approaches, commodity profitability, innovative management, sales management, management system.

**Kirish.** Hammamizga ma'lumki innovatsiyalar va innovatsion boshqaruvga nisbatan oshirilgan e'tibor hozirgi jamiyatning hayotining o'zi tomonidan talab qilinadi, axir innovatsion jarayonlarni yangi mahsulotlar va yangi texnikada ro'yobga chiqishi uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosi bo'ladi. Fanning dastlabki nazariy elementlari XXasrning 30-yillarida paydo bo'la boshlagan. Xususan, Dj. Vilyams tomonidan 1938-yilda, «Moliyaviy aktivlarning qiymatini baholash» modelini yaratilishi moliyaviy menejment fanining nazariyasini shakllanishiga muhim turtki bo'lgan. 60-yillarga kelib G. Markovitsa, U. Sharpa, Dj. Mossina kabi olimlar tomonidan, moliyaviy aktivlarning daromadlilagini baholash modelining (Capital Asset Pricing Model, CAPM) ishlab chiqilishi yuqorida ni nazariyaning keyingi rivojlanish bosqichi bo'ldi. Bundan tashqari ushbu yo'nalishda ko'plab iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan, jumladan: «Optsion baho shakllanish nazariysi» («Option Pricing Theory»). Optsionlardan foydalanishni o'z ichiga olgan investitsion strategiyalar, ko'plab mashhur olimlar, shu jumladan V.Sharp, R.Merton, F.Blek, M.Shoulz ishlarida ko'rib chiqilgan. Opcion baho shakllanishiga bag'ishlangan nazariyalarda, qimmatli qog'ozlar bozorining turli ishtiroychilarini optionslar bilan savdo qilish tizimlari yoritilgan va taqqoslangan. V. Sharp tomonidan nol vaqtdagi optionsning ichki (haqiqiy) qiymatini aniqlash imkonini beruvchi, opcion qiymatini baholashning binomial modeli ishlab chiqilgan.

Menejment (inglizcha «management» - boshqarmoq, idora qilmoq, tashkil qilmoq) bu:

— ishlab chiqarishni, tijoratni boshqarish bo'yicha ma'lum maqsadlarni ko'zlovchi amaliy faoliyat;

— boshqaruv nazariyasi fani boshqaruv tamoyillari, usullari, vositalari va shakllarining majmuasi;

— mamlakatimizning hozirgi zamon amaliyotida korxona, investitsion strategiyalar ning rahbarlik qiluvchi tarkibidir.

«Menejment» tushunchasi hayotimizga mustahkam kirib kelgan va o'zbekcha ishga doir faoliyat uchun odatiy bo'lib qolgan. Ammo shuni hisobga olish joizki, gap yangi falsafa haqida ketmoqda, bunda qadriyatlar va ustuvorliklarning yangi tizimlari amalda boladi.

Menejment tushunchasini belgilash uchun unga kiruvchi ba'zi bir holatlarni, avvallo maqsadli mazmunni aniqlab olish darkor. Masalan, boshqaruv tizimini barqaror, ishonchli, istiqbolli va samarali faoliyat yuritishni ta'minlovchi boshqaruv nazariyasi, ilmiy yondashuvlar, jarayonlar, tamoyillar va usullarni ishlab chiqish menejmentning fan sifatidagi maqsadi boladi. Shu bilan bir vaqtda, menejmentning samarali boshqaruv amaliyoti sifatidagi maqsadi tashkilotning yuqori foydaliligi, raqobatbardoshligi va boshqa maqsadlariga ishlab chiqarish, savdo va boshqa jarayonini oqilona tashkil etish va tashkilotning texnik-tehnologik bazasini rivojlantirish yoli bilan erishishdan iboratdir.

Boshqaruvchi tizimga innovatsion menejment katta tizimi ierarxik tuzilmasining uchinchi va eng yuqori bosqichi bo'ladi. U kichik tizimchalardan tashkil topgan, boshqaruvning maqsadlari, vazifalari, usullari va tuzilmalari tizimidan iborat bo'lgan ierarxiyaning ikkinchi bosqichi har xil tizimchalari operatsion boshqaruv tizimidan

iboratdir. Nihoyat, ierarxiyaning birinchi, pastki bosqichida boshqaruvning tipik mahalliy tizimlari turadilar. Masalan, boshqaruv vazifalari tizimchasi rejalshtirish, tashkil qilish, rahbarlik qilish, muvofiqlashtirish va tartibga solish, undovchi sabablarni boshqarish, o'zaro hamkorlik va nazorat qilish jarayonlarini tashkil qilishning tipik jarayonlari o'zaro bog'langan yig'indisidan iboratdir. Har bir tipik jarayon yakka harakatlar tizim elementlaridan tashkil topadi. Bunda barcha elementlar, jarayonlar, tizichalar har xil turdag'i va ko'p sonli aloqalar va o'zaro hamkorliklarga ega. Masalan, nazoratning tipik jarayoni faoliyat natijaviyligi ko'rsatkichlari shaklidagi standartlarni belgilash, dastlabki nazora, faoliyat yuritish ko'rsatkichlarini berilgan standartlar bilan solishtirishni o'z ichiga oluvchi joriy nazorat va natijalarni o'lchashdan tashkil topadi. Yakuniy nazorat navbatdagi bosqichlar yoki umuman butun ish tugagandan keyin amalgalashiriladi.

**Material va metod.** Moliyaviy menejment - moliyalarni boshqarishning barqarorligi, ishonchliligi va samaradorligini ta'minlashning majmuaviy tizimidir. U o'z ichiga moliyaviy ko'rsatkichlarni menejmentga ilmiy yondashuvlar va tamoyillar, daromadlar va xarajatlar balansi, resurslardan foydalanishning samaradorligi ko'rsatkichlari, ishlar va tovarlar rentabelligiga rioya qilish bilan shakllantirish va rejalshtirishni oladi. Innovatsion menejment - mulk egasi tomonidan innovatsiyalarning barcha turlarini rivojlantirishga kiritiladigan investitsiyalarni boshqarishning majmuaviy usuli. U o'z ichiga tashkiliy tuzilmalarni qurish, innovatsiyalarning yo'naliishlarini tanlash, innovatsiyalar, xodimlarni boshqarishning har xil jihatlarini muvofiqlashtirishni oladi. Savdo menejmenti - savdo korxonasi faoliyatining barcha asosiy jihatlarini boshqarish jarayonidan iborat boladi. U aniq savdo

korxonasini rivojlantirish masalalari bo'yicha oqilona boshqaruv qarorlarini shakllantirish, uning faoliyati har xil yo'naliishlarini muvofiqlashtirish va bu faoliyatning yakuniy natijalari yuqori samaradorligini ta'minlashga qaratilgan. Innovatsion faoliyatni iqtisodiyotni rivojlanishining muhim tendentsiyasi sifatida

ko'rib chiqishda innovatsion jarayonlarning yangi tashkiliy shakllarini ularni davlat, ilmiy, bozor va ijtimoiy institutlar tizimiga kiritilishi asosida integratsiyalash muammosi birinchi o'ringa chiqadi. Innovatsion biznesni institutsional tuzilmalarga kiritilishi darajasini oshishi nafaqat innovatsion faollilikni pasaytiradi, balki, aksincha, innovatsion jarayonlarning o'zini o'zi tashkil qiluvchi tuzilmalarni takomillashtirish va vujudga keltirish qobiliyatini oshiradi. AQSHda paydo bo'lgan innovatsion jarayonning institutsional tuzilmalari bu ikki tendentsiyalarni birlashishiga yaqqol misol bo'lsa oladi. Innovatsion jarayonning ham yirik sanoat kompaniyalari doirasida va ham ilmiy-texnik va innovatsion loyihamalar asosida amalga oshirilayotgan an'anaviy tashkiliy modellari "bo'linma-inkubatorlar" ning yopiq ilmiy texnik muhitga ularni kichik aptrener (ega, ijrachi) guruhlar bilan tijoratlashtirish bosqichiga "etkazish" bilan suyanadi. Yuqori kasbiy innovatsion bo'linmalarning ixchamligi va tor ixtisoslashishiga qaramasdan innovatsion loyiha moliyaviy muvaffaqiyat va foydani tez olish bilan qat'iy bog'langan.

**Natijalar.** Bunda shuni tahkidlash kerakki, keyingi yillarda boshqaruv tizimlarini rivojlantirish markazlari zamonaviy darajada takomillashmoqda. Eng rivojlangan mamlakatlar guruhida Yaponiya, Germaniya va Shveysariya yetakchilik qilmoqda. Boshqaruvning zamonaviy talablariga muvofiq

Buyuk Britaniya - 16 o'rinda turibdi. Keyingi 10 - 15 yillar ichida iqtisodiyotda keskin ko'tarilishga xos bolgan mamlakatlar orasida Singapur, Gonkong va Tayvan yetakchilik qilmoqdalar.

- Boshqaruv (menejment)ning mohiyati va tizimi Umumiy ko'rinishda boshqaruv ikki obyektning maqsadga qaratilgan o'zaro hamkorligidan iborat bolib, bunda ulardan biri boshqaruv subyekti o'rnida, boshqasi esa boshqaruv obyekti o'rnida boladi. Bu o'zaro hamkorlik uchun quyidagilar xosdir:

- boshqaruv subyekti boshqaruv obyektiga ta'sir ko'rsatish impulsleri (boshqaruv buyruqlari)ni jo'natadi, ular boshqaruv obyekti qanday faoliyat yuritishi haqidagi axborotga ega boladilar;
- boshqaruv obyekti ushbu impulslar (buyruqlar)ni oladi va ularga muvofiq harakat qiladi.


Innovatsion markazlar, texnoparklar va texnopolislar misolida innovatsion infratuzilmaning ahamiyat ayniqsa sezilarlidir, u fanni bozor muhitiga kirishi, ilmiy-texnik sohada tadbirkorlikni rivojlanishi va yangiliklarning iqtisodiy samaradorligini oshishiga yordam beradi. Innovatsiyalarning tijorat muvaffaqiyatining ehtimoli maxsus institutlar, tashkilotlarni shakllanishi va yagona innovatsion sohada shakllangan innovatsion jarayonni ta'minlash tizimlari tufayli keskin oshadi. Innovatsion sohada innovatsion infratuzilma markaziy rol o'yaydi, u innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun mablag'larni samarali taqsimlash va xizmatlar ko'rsatishga ko'maklashuvchi sharoitlar yaratish uchun tashkiliy, moddiy, axborot, moliya va kredit bazasidan iborat bo'ladi. Kommunikatsiyalar tizimini rivojlanishi xaqida gapira turib, yuqori texnologik telekommunikatsion sohani rivojlanishi biz uchun qanday strategik muhim ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash zarur. Bugun hayotni kompyuter texnikasi, axborot texgologiyalari, internet,

uyali telefon aloqasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Innovatsion faoliyatning xususiyatlari menejmentdagi kommunikatsiyalarning turlari va shakllari oldiga oshirilgan talablarni qo'yadi. Innovatsion islohotlarning harakteri,

tadbirkorlikning yuqori hatari, yondashishlarni muqobilligi va qarorlarning ko'p variantligi yangiliklarni yaratish jarayonidagi kommunikatsiyalar shakllarining turli tumanligi va turlarini tabaqlashuvini taqozo qiladi. Kommunikatsiyalar yetaricha to'liq axborotlarga erishishganda sifatli qarorlarni qabul qilinishini ta'minlashga xizmat qiladilar. Yangiliklarni ishlab chiqishning keyingi tadbirlari, g'oyalarni vujudga kelishi ratsional xarakterga egaligiga qaramasdan, yangiliklarni individuallik va yaxlitlikning sintezi sifatida tushungan holda, aql yetmaydigan farosatni talab qiladi. Kreativ menejer yangiliklarni bundan keyingi ishlab chiqilishi haqidagi qarorni qabul qilishda e'tiborni keyingi amaliy tadqiqotlardagi sabab – oqibat aloqalari va ratsional – mantiqiy xarakterga jamlashi kerak. Innovatsion menejer uchun ilmiy faoliyat jarayonida takrorlanmaydigan va yagona yangilikning tahlilidan standartli qarorlar qabul qilishning takrorlanadigan tadbirlarni o'rganish va amal qilishga mantiqiy o'tish muammosi vujudga keladi. Bu innovatsion menejmentda qabul qilinadigan qarorlarning farosatli noyobdan to qat'iy ratsionalikkacha bo'lgan keng turli tumanliklari bilan izohlanadi. Asosiy qarorlar menejerning innovatsion menejmentning vazifalari ichidagi huquqlari, vakolatlari doirasida qabul qilinadi. Masalan, Innovatsion loyihani rejalashtirish vazifasi o'z ichiga yangilikning taklif qilinayotgan loyihasini tahlil qilish va baholash, loyihani mavzuli rejaga kiritish, loyihani amalga oshirish bo'yicha ishning jadvali va tarkibini va tarkibini, loyiha bo'yicha xarajatlar, loyihaning jamoasi va pudratchilar, yetkazib

beruvchilarning tarkibini tasdiqlash va h.k, loyihani ta'minlash uchun moliyaviy oqimlarni, sarmoyadorni qidirib topish, loyihani amalga oshirish rejasini qabul qilishni

oladi.



1-rasm. Boshqaruv tizimining boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimchalari.

**Munozara.** Bozor samaradorligining qayd qilingan shartlariga muvofiq F. Modilyani va M. Miller quyidagi fikrlarni ilgari suradi:

1. korxonaning bozor qiymati kapital strukturasiga bog'liq emas va mazkur korxonaning tavakkalchilik yo'naliishiga mos bo'lgan stavka bo'yicha uni joriy (operatsion) foydasining kapitallashuvi yordamida aniqlanadi;

2. moliyaviy jihatdan bog'liq bo'lgan korxona o'z kapitalining qiymati moliyaviy jihatdan bog'liq bo'lмаган korxona o'z kapitalining qiymati va tavakkalchilik uchun mukofotlar yig'indisiga teng;

bunda tavakkalchilik uchun mukofot o'z va qarz mablag'lar ayirmasini moliyaviy dastak miqdori ko'paytmasiga teng.

Innovatsion rivojlanish maqsadlarni belgilash va kompaniya rivojlanishi yo'naliish strategik ko'rishga o'zining xususiyatlarini kiritadi, boshqaruv apparati oldida turgan vazifalarni modifikatsiyalaydi. Innovatsion tadbirdorlikning yuqori xatari, mahsulotlarni mavjud bo'lish davrlarini qisqarishi, yirik seriyali ishlab chiqarishdan voz kechish innovatsion menejer zimmasiga

alohiba majburiyatlar yuklaydi. Innovatsion faoliyat sharoitida menejerning roli keskin o'sadi, uning shaxsi, qobiliyati, malakasi va kasbiy ko'nikmalari esa haqiqatda ham kompaniya taqdirini belgilab beradi.

Mahsulot sifatini boshqarishning yapon tizimi asosiga firma doirasida sifat ustidan yalpi nazorat qilish qo'yilgan, u din maqomini olgan. Sifat ustidan nazorat ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini qoplab oladi. Nazorat qilish tizimiga firmanın barcha xodimlari jalb qilingan.

Hozirgi vaqtida yapon iqtisodiyotining barcha sohalarida sifat guruhlari (to'garaklari) harakat qiladi, ularga ishchilardan tashqari master va muhandislar kiritiladi. Sifat guruhlari (to'garaklari) texnologiyadan tortib to ijtimoiy-ruhiygacha bolgan barcha muammolarni hal qiladilar. Bu ulardan har birining afzalliklari va kamchiliklarini ajratishga imkon beradi. 23 Menejmentning G'arbiy Yevropa modeli shakllanishiga Yevropa davlatlari olimlarining tadqiqotlari katta ta'sir ko'rsatgan. Masalan, bixevoirizm ta'siri ostida boshqaruvni psixologiyalashtirish tendensiyasi kuzatiladi. Faraz qilinadiki,

pulli mukofotlash barcha harakatlarni belgilab beruvchi yagona omil bo'lmaydi. Ular ko'proq yakka shaxsning

xulqiga bog'liq bo'lgan psixiologik motivatsiyani belgilab beradilar.

1-jadval.

## Menejmentning Yapon va Amerika modellari

Yapon modeli	Amerika modeli
Boshqaruv qarori jamoaviy qabul qilinadi	Qaror shaxsan qabul qilinadi
Jamoaviy javobgarlik ustun bo'ladi	Shaxsiy javobgarlik ustun bo'ladi
Boshqaruvning egiluvchan tizimi	Boshqaruvning qat'iy, bir shaklga keltirilgan tizimi
Nazoratni norasmiy tashkil qilinishi	Nazoratning bir shaklga keltirilgan tadbirlari
Jamoaviy nazorat	Menejmentning shaxsiy nazorati
Xodim ishini sekinlashtirilgan holda baholanishi va xizmatdagi o'sish	Mehnat natijalarini tez baholash, xizmat bo'yicha jadal siljishi
Rahbarning eng muhim sifati muvofiqiashtirish va nazoratni amalga oshirishni bilish	Rahbarning eng muhim sifati kasb egasi bo'lish
Boshqaruvni guruhlarga qaratish	Boshqaruvni yakka shaxslarga qaratish
Boshqaruvni jamoaviy uyg'unlikka erishish va jamoaviy natija bp'yicha baholash	Boshqaruvni shaxsiy natija bo'yicha baholash
Qo'l ostidagilar bilan norasmiy munosabatlarning ustunlik qilishi	Qo'l ostidagilar bilan rasmiy munosabatlarning ustunlik qilishi
Xizmat bo'yicha yosh va ish stajiga ko'ra ilgari siljish	Martabaning shaxsiy natijalarga bog'liq bo'lishi
Universal turdag'i rahbarlarni tayyorlash	Tor mutaxassislikdagi rahbarlarni tayyorlash
Guruh ishining natijalari, staj bo'yicha mehnatga haq to'lash	Shaxsiy ulush bo'yicha mehnatga haq to'lash
Firmada uzoq muddatli bandlik	Qisqa muddatga yollash

Menejmentning yapon va Amerika modellarining ta'siri yagona omil bo'lmaydi. Ular ko'proq yakka shaxsning, uning xulqi bilan bog'liq bo'lgan ruhiy motivatsiyasiga asoslanib belgilaydilar. «Insoniy munosabatlar» matabining g'arbiy germaniyalik nazariyachilari, o'zlarining AQSH va Yaponiyadagi hamkasblariga nisbatan, xodimlarni boshqarishga qat'iyroq yondashish uchun ovoz berganlar. (2.1-jadval)

**Kulosa.** Innovatsion menejment O'zbekistondagi tadbirkorlarga va ilmiy ommaga nisbatan yangi tushunchadir. Iqtisodiyotni boshqarish formalari o'rniga boshqa yangi uslublar va shakllar paydo bo'lmoqda. Bunday sharoitda mazkur faoliyat bilan davlat organlaridan tortib pastki tabaqalardagi korxonalar ham kichik biznes shaklida shug'ullanmoqlari lozim. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat korxonalari yuridik va iqtisodiy erkinliklarga ega, shu sababli hech qanday kiritishlar

haqida (davlat tomonidan) gap bo‘lishi mumkin emas. Bu prinsip orqali innovatsion menejment oblastidagi alohida tushunchalardagi farqlarni tushunish mumkin. Kelajakdagи innovatsion tashkilotni rivojlanish qonunlari XXI asr iqtisodiyot haqida evolyutsion – institutsional haqidagi kabi gap yuritadi. Ammo 1990 yillardayoq amalda tashkilotlarning oraliq shakllarini yaratishga 30 % amerikali va 25 % yaponiyali firmalar murojaat qilganlar. Har tomonlama rivojlanish firma “ichidan” (yapon yo‘li) yoki “tashqari” dan firmalarni birlashishi, yutib yuborilishi, xarid qilinishi natijasida (amerikaga yo‘l) boshlanishi mumkin. Innovatsion faoliyatni kuchaytirish uchun firmalararo kooperatsiyaning boshqa turlari, har xil ilmiy-sanoat majmualari, hamda moliya-sanoat guruhlarining ko‘pgina turlaridan ham foydalaniadi. Bu tuzilmalarning eng muhim vazifalari xo‘jalik aloqalarini barqarorlashtirish va ichki raqobat muhitini shakllantirish asosida ishlab chiqarish jarayonlarini tartibga solinishi, ishlab chiqarishni pasayishiga qarshilik qilishlarini kuchaytirishdan iboratdir. Iqtisodiyotni rivojlanishida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning miqdoriy va sifatiy tarkibi, ularning integratsiyalangan sarmoyalari tizimi elementlari bilan munosabatdoshligi birinchi o’ringa chiqaruvchi guruhlar eng katta ahamiyatga egalar. Har tomonlama rivojlangan firma ham bozordagi o’sish sur’atlari va ham firmaning raqobat o’rni bo‘yicha ancha orqada qoladi. Innovatsion so‘zining ma’nosi ingliz tilidagi «innovation» so‘zidan olingan bo‘lib, yangilik va yangilik kiritish degan ma’noni bildiradi. Tashkilotning har tomonlama rivojlanishning har xil shakllariga qobiliyati asosiy sohalar, texnologiyalar, mahsulot turlari asosida shakllandi.

Innovatsion tashkilotdagi har tomonlama rivojlanishning yetakchilari bo‘lgan har xil sohalarning texnologiyalari va yuqori texnologik ishlab chiqarishlar asoslariga suyanishdan iboratdir. Bunday yondashish mahsulotning raqobatbardoshligini qo’llab – quvvatlash va yangi raqobat afzalligini yaratishning zarur sharti bo‘ladi. Bu yangilik zamirida yangi tartibni, yangi odatni, yangi uslubni, kashfiyotni ifodalaydi. Yangilikni bozorga kiritish jarayonini tijoratlashish jarayoni deb atalsa, yangilikning paydo bo‘lishi va uni hayotga tatbiq etilishi oralig‘idagi vaqt esa innovatsion loyihani namoyon etadi. Innovatsion loyiha innovatsion faoliyatni maqsadli boshqarishni shakli sifatida fan va texnikani ustuvor yo‘naltirilgan rivojlantirishning aniq maqsadlari (vazifalari)ga erishishga qaratilgan tadbirlarning resurslar, muddatlar va ijrochilar bo‘yicha o‘zaro asoslangan va o‘zaro bog’langan murakkab tizimidan iboratdir. Innovatsiyalarni amalga oshirish jarayoni sifatida – bu innovatsiyalarga olib keluvchi ilmiy, texnologik, ishlab chiqarish, tashkiliy, moliyaviy va tijorat tadbirlarini belgilangan izchillikda bajariladigan majmuasidir. SHuning bilan bir vaqtida innovatsion loyiha – bu loyiha maqsadlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan texnik, tashkiliy, rejaviy va hisoblash – moliyaviy hujjatlarning yig‘indisidir. Bu uchta nuqta nazarlarni hisobga olish bilan, quyidagi ta’rifni berish mumkin: innovatsion loyiha – bu masofa va vaqtda muammolarni hal qilish, innovatsion jarayonlarni tashkil qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan maqsadlar va tadbirlarni belgilab beruvchi hujjatlarining yig‘indisidir. Maqsadlar va tadbirlarni ilmiy asoslanishiga menejmentda ilmiy yondashishlarga rioya qilish, zamonaviy usullarni qo’llash yo‘li bilan erishiladi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Малей, Е. Б., Трубович, Р.О. Экономическая сущность и оценка биомассы коммунальных отходов/ Вестн. Полоц. гос. ун-та. Сер. D, Экон. И юрид. науки. - 2022.
2. Международный стандарт финансовой отчетности IFRS 13 «Оценка справедливой стоимости» [Электронный ресурс]: с изм. на 11.07.2016 г./Кодекс: электрон. фонд правовой и норматив.-техн. документации. – Режим доступа: <https://docs.cntd.ru/document/420334241>. - Дата доступа: 30.03.2023
3. Kudbiev, D., Qudbiyev, N. T., & Imomova, Z. T. Q. (2022). Moliyaviy Hisobotlardan Moliyaviy Menejmentda Foydalanish Masallalari. Scientific progress.
4. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. Ilmiy electron jurnali №3 may–iyun, 2020-yil.
5. Pardayev M. D Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. 2-nashr. “Innovatsion rivojlanish nashriyot uyi” 2021
6. D.Ovidia The role of management accounting in the decision making process: case study cara severin county, Annales Universitatis Apulensis Series Oeconomica, 2013.
7. Baymuratova L.R., Dolgova O.A., Imayeva G.R., Gritsenko V.I., Smirno K.V., Aymaletdinov T.A. Цифровая грамотность для экономики будущего / Аналитический центр НАФИ. -М.: Издательство НАФИ, 2018.
8. [https://library.samdukf.uz/files/cc7a18ef7cfa59ce83bbcbfd6bad01a3\\_MOLIYAVIY%20MENEJMENT.%20.pdf](https://library.samdukf.uz/files/cc7a18ef7cfa59ce83bbcbfd6bad01a3_MOLIYAVIY%20MENEJMENT.%20.pdf)